

# Oliy Ta'lim Muassasalarining Innovatsion Faoliyat Natijalarini Tijoratlashtirish Muammolari Va Ularni Hal Etish Yo'llari

*Naimova Nargiza Akbarovna*<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Oliy ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirish bo'yicha ushbu maqolada fikr-mulohazalar berilgan, shuningdek, tijoratlashtirish borasidagi muammolar tahlil qilinib, ularni hal etishga oid kerakli xulosa va takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'im, innovatsiya, innovatsion faoliyat, tijoratlashtirish.

Mamlakatimizda ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyatni amalga oshirish, ilmiy-texnikaviy va innovatsion rivojlanishni ta'minlash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishda mavjud moliyaviy va moddiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, 2014-2018 yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'laridan ilmiy-amaliy va innovatsion loyihalar hamda ishlanmalarni moliyalashtirish uchun qariyb 800 milliard so'm ajratilib, ularning natijalariga ko'ra ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari tomonidan 700 dan ortiq ixtiro patentlashtirildi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotning jadal rivojlanishi mamlakat ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarining ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyati natijalarini tijoratlashtirishda mavjud salohiyatdan yanada to'liq foydalanish zaruratini taqozo etmoqda<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldagi "Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ3855-sonli qarori bilan O'zbekiston tarixida ilk bor davlat darajasida 43 ta tijoratlashtiriladigan ishlanmalar ro'yxati Prezident qarori bilan tasdiqlanib, ishlanmalarni joriy etishga mas'ullar etib, davlat boshqaruvi organlari tasdiqlandi.

Shuningdek, ushbu qaror bilan tasdiqlangan ishlanmalarni o'z vaqtida tijoratlashtirmaganligi va sifatsiz tijoratlashtirganligi uchun ularni joriy etishga javob beradigan shaxslarga nisbatan ularning o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima shaklida intizomiy jazo choralari qo'llanilishi belgilab qo'yildi.

Hozirgi kunda biz olimlarimizning xalqaro ilmiy dasturlar va xalqaro ilmiy konsorsiumlarda ko'proq ishtirok etishi, chiqish qilishi ustida ish olib bormoqdamiz. O'zbekiston uchun fanning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlagan oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarining kadrlar zahirasini yaratgan holda, tadqiqot va ishlanmalarni o'tkazish jarayonini integratsiyalashda ilmiy-tadqiqot markazlarini joriy etish masalasini ishlab chiqyapmiz.

Oliy o'quv yurtlarining istiqbolli ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini rivojlantirish maqsadida strategik-akademik bo'linmalar, shuningdek, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida bog'lovchi bo'g'inlarni yaratish maqsadida kichik innovatsiyaviy korxonalar tashkil etmoqdamiz. Birinchi navbatda, suv va suvdan foydalanish, energetika, inson va insonning hayotiy faoliyat yuritishida uning xavfsizligi muammolarini hal etish, nano va biomateriallar, ularni qayta ishlash texnologiyalari, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq tadqiqotlar yurtimiz ilm-fanidagi istiqbolli yo'nalishlardandir. O'zbek ilm-fani azaldan

<sup>1</sup> Osiyo xalqaro universiteti

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldagi "Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3855-sonli qarori.



fizika, matematika, kimyo kabi aniq fanlar bo'yicha kuchli bo'lib kelgan. Shu bois, bu sohalardagi tadqiqotlarni muntazam ravishda qo'llab-quvvatlash zarur<sup>3</sup>.

Dunyo tajribasida innovatsiyalarni mustaqil ravishda tijoratlashtirishda, u injiniring xizmatlari va lizingni o'z ichiga olmaydi va ma'lum davr uchun olinadigan foyda 2.1-formula yordamida hisoblanadi<sup>4</sup>:

$$P_{T1} = \sum_{t=1}^{tk} V_t \cdot \Delta P_t \cdot K_{dt} \quad (1)$$

Bu yerda  $P_{T1}$  – T davrida o'z innovatsion mahsulot va xizmatlarni tijoratlashtirishdan olish mumkin bo'lgan foyda miqdori, pul birligida;

$V_t$  – tyilida innovatsion mahsulot yoki xizmatlarni sotish hajmi, dona;

$\Delta P_t$  – t-yilda innovatsion mahsulot yoki xizmat birligini sotishdan olishni rejalashtirilgan foyda miqdori, pul birligida;  $K_{dt}$  – t-yilda diskontlash koeffitsiyenti;  $tn$  va  $tk$  – T davrining mos ravishda dastlabki va oxirgi yillari.

Huquqlar qisman topshirilganda yoki ular boshqa shaxsga to'liq o'tganda foydani hisoblashda 2.2-formulani qo'llash lozim<sup>57</sup>:

$$P_{T2} = D \cdot \sum_{t=1}^{tk} V_t \cdot \Delta P_t \cdot K_{dt} \quad (2)$$

bu yerda  $P_{T2}$  - T davridagi kutilayotgan foydaning miqdori, u franchayzing, lizing, injiniring xizmatlari va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan litsenziyalar yoki patentlarni sotishdan olinadigan daromad hajmiga teng, pul birligida;

D - patent yoki litsenziyani xaridorining foydasida mualliflik huquqi egasining ulushi, foiz.

Agar  $P_{T1} > P_{T2}$  bo'lsa, tashkilot uchun ishlab chiqilgan innovatsiyani mustaqil ravishda qo'llash samaraliroq bo'ladi, agar  $P_{T1} < P_{T2}$  innovatsiyalar patenti yoki litsenziyasini sotish afzal hisoblanadi.

Yangiliklar odamlar tomonidan ishlab chiqiladi, ular, o'z navbatida, iste'molchi sifatida ham ishtirok etadilar, shuning uchun ham tashkilotning inson kapitalini takomillashtirish, xodimlarni uning unumdorligi va raqobatbardoshligining asosiga aylantirish juda muhimdir.

Rejali iqtisodiyotda mavjud bo'lmagan innovatsiyalarni tijoratlashtirish muammosi bozor iqtisodiyoti sharoitida dolzarb bo'lib ketmoqda. G'arb mamlakatlari tajribasidan samarali foydalanish orqali innovatsiyalarni tijoratlashtirish jarayonlarini takomillashtirish va O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish mumkin .

3-ilovani tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalarni tijoratlashtirish muayyan qiyinchiliklarga ega va ularni o'zlashtirish ko'p qirrali, xavf-xatarli va qimmat jarayondir, chunki innovatsiya ob'ekti sifatida intellektual mahsulot xizmat qiladi. Bu avvalambor innovatsiyalarni tijoratlashtirishni moliyaviy, tashkiliy, normativhuquqiy ta'minotiga taalluqlidir.

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari natijalarini tijoratlashtirish bilan bog'liq quyidagi munozarali masalalarni sanab o'tish mumkin:

- tijoratlashtirish ehtimoli yuqori bo'lgan innovatsiyalarni markazlashtirilgan moliyalashtirish jarayonini boshqarish va mexanizmini yaratish;
- innovatsion loyihalarga davlat ko'magini qulay shakllarini ishlab chiqish va qo'llash, bunda ular innovatsiyalar hayotiy siklining barcha bosqichlari va ijrochilar holatini aniqlashtiradi, shu jumladan davlat mablag'larini o'zlashtirayotgan davlat-xususiy va xususiy sherikchilikni ham;

<sup>3</sup> <https://uzanalytics.com/jamiyat/4226/>“Buyuk Kelajak” xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti eksperti Yo'lbarsxon Mansurov inson kapitali, ilmiy ishlanmalar va O'zbekistonning barcha fuqarolari uchun mo'ljallangan innovatsiyalar to'g'risida.

<sup>4</sup> Тихонов Н. А. Эффективность способов коммерциализации инноваций /Н.А.Тихонов// Управление экономическими системами- 2012-№ 4. -С. 104.



- global innovatsion tizimga integratsiya qilish uchun innovatsion faoliyat sohasidagi qonunchilikni modernizatsiya qilish;
- texnika va texnologiyalarni tijoratlashtirish bo'yicha jahon ilg'or tajribasidan oqilona foydalanish, shu jumladan ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarini diversifikatsiyalash, ko'p tarmoqli hamjamiyatlar va sherikchiliklarni shakllantirish, iqtisodiy klasterlarni yaratish va yangi mahsulot va xizmatlarni iste'mol qilishni rag'batlantirish.

Yuqoridagi muzokarali muammolar bizning ilm-fan jahon ilmiy hamjamiyatga integratsiyalashuvi sharoitida O'zbekiston xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni hal etishning samarali mexanizmlarini shakllantirish zarurligini taqozo etmoqda. Shuningdek, hozirgi holatni oqilona baholash juda muhimdir, chunki innovatsiyalar natijalarini tezda o'zlashtirish imkoniyatlari milliy iqtisodiyotning innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyojlaridan oshib ketmoqda.

O'zbekistonda innovatsiyalarni tijoratlashtirishda moliyaviy va infratuzilmaviy ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishda nafaqat ijobiy, balki salbiy xorijiy tajribani ham o'rganish zarur, chunki oqibatlarini to'g'ri baholash va xato tashabbuslarni rad etish mablag'larni bekorga sarflamaslik va muhim innovatsion afzalliklarni shakllantirish muddatini qisqartirishga imkon beradi, ayniqsa ayrim tadqiqot va texnologiyalarning turlari uchun.

Innovatsiyalarni tijoratlashtirishning moliyaviy mexanizmlarini shakllantirish uchun yangi moliyaviy mablag'lar manbalarni faol izlash va jalb qilish, shuningdek, kutilayotgan daromadlarni loyiha ishtirokchilari o'rtasida hamda olingan mablag'larni innovatsion loyihalar o'rtasida samarali va o'zaromanfaatli taqsimlash chizmasini yaratish talab etiladi.

O'zbekistonda loyihalarni tanlov asosida moliyalashtirishda eng ilg'or investitsiyalash usuli hisoblangan shuningdek tadbirkorlik innovatsion tashabbusni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan venchur moliyalashtirishdan hozirgi vaqtda innovatsiyalarni tijoratlashtirishda keng qo'llanilmaydi. Venchur fondlarning faoliyati uchun qulay infratuzilmaviy shart-sharoitlar yetarli darajada shakllantirilmagan.

O'zbekiston Respublikasida, birinchi navbatda, fundamental tadqiqotlarni olib borishni qo'llab-quvvatlash ayrim davlat fondlari muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda, qidiruv tadqiqotlarini esa – juda kam hollarda.

O'zbekistonda innovatsiyalarni tijoratlashtirishda infratuzilma elementlarining bir qismi bo'lmish huquqiy ta'minot alohida ahamiyatga ega. Mamlakatimizda innovatsion, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-texnik faoliyat uchun zamonaviy me'yoriy-huquqiy bazani shakllantirish bozor islohotlarining birinchi bosqichidanoq boshlandi, ya'ni 1993-1997 yillarda. Bu ilmiy sohani isloh qilish, birinchi navbatda, tadbirkorlikning innovatsion infratuzilmasini yaratish, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar natijalari bo'lgan innovatsiyalarni tijoratlashtirishni davlat tomonidan qo'llabquvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yaratish zaruriyati bilan belgilanadi. Ushbu jarayonlar hozirgi davrda ham davom etmoqda<sup>5</sup>.

Milliy innovatsion korxonalarining yangi texnologiyalariga (foydalanishga tayyor va istiqbolli texnologiyalarga) tegishli tijoratlashtirish shakli va natijasi bo'lmish huquqlarining xalqaro savdosi kelajakda O'zbekiston Respublikasida ushbu huquqlarni saqlab qolish asosida amalga oshirilishi lozim. Buning uchun innovatsiya mualliflari, aksiyadorlar, o'zbekistonlik va xalqaro investorlarning manfaatlarini muvozanatlash, shuningdek, davlatning milliy manfaatlarini qondirish uchun moslashuvchan huquqiy tizim yaratish zarur, hamda daromadlarni taqsimlash va royalti to'lashning samarali yo'llarini yaratish va boshqarish muhimdir, ya'ni innovatsiyalarni tijoratlashtirishni samarali ta'minlaydigan butun infratuzilma majmuasini takomillashtirish lozim.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda O'zbekistonda tashkil etilayotgan texnologiyalar transferi markazlari faollik xususiyatiga ega emas, chunki ular asosan xalqaro hamkorlikka qaratilgan bo'lsada mamlakat ichidagi firmalar bilan ishlaydilar. Bu innovatsion sohadagi huquqiy qiyinchiliklar

<sup>5</sup> Сурат, Л.И. Анализ потенциальных возможностей коммерциализации вузовских инноваций в малых инновационных предприятиях./ Сурат Л.И.// Транспортное дело России- 2011.- №1.С.43-45



bilan, shuningdek, siyosiy beqarorlik, valyuta kurslarining tez-tez o'zgarishi va boshqa omillar bilan bog'liq. Bularning barchasi mintaqaviy va mintaqalararo innovatsion hamkorlik imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

Innovatsiyalarni tijoratlashtirish uchun samarali infratuzilmaning quyidagi huquqiy tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) innovatsiyalarni moliyalashtirish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot institutlari va vaqtinchalik ijodiy (innovatsion) jamoalar faoliyatini moliyalashtirishning soddalashtirilgan sxemalari;
- 2) ilgari amalga oshirilgan (tijoratlashtirilgan) loyihalardan olingan foydani yangi innovatsion loyihalarga reinvestitsiya qilishni huquqiy qo'llab-quvvatlash;
- 3) milliy brendlarni shakllantirish va tijoratlashtirishni rag'batlantirish sohasidagi qonunchilikni rivojlantirish;
- 4) klaster tuzilmalarining shakllanishi va faoliyatini samarali tashkiliy-huquqiy qo'llab-quvvatlash; istiqbolli innovatsion texnologiyalarga bo'lgan huquqlarni sotish uchun asosiy baza sifatida ularning faoliyatini qonuniy ta'minlashda davlat ishtirokini ta'minlash;
- 5) innovatsion sohada davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish uchun qonunchilik infratuzilmasini yaratish;
- 6) chet elga sotiladigan istiqbolli texnologiyalarga bo'lgan huquqlarni O'zbekiston Respublikasida saqlanib qolishini ta'minlash;
- 7) ikki tomonlama ahamiyatga ega innovatsion texnologiyalarni tijoratlashtirish jarayonining ishtirokchilari uchun qonuniy rag'batlantirish tizimini shakllantirish.

Qonunchilik sohasida barcha masalalarini qamrab olish harakatidan voz kechish lozim. Innovatsion faoliyatni qonuniy va moliyaviy ta'minlashning ba'zi eng ustuvor muammolarini tanlab olish va hal qilish O'zbekistonda samarali milliy innovatsion tizimni yaratish nuqtai nazaridan juda muhimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Shamsiya, A. (2023). HR MANAGEMENT AND COACHING IN THE INNOVATIVE ECONOMY AS A METHOD OF BUSINESS MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 712-717.
2. Abidovna, A. S. (2024). The Importance of Personnel Management in the Operations of an Organization. *Miasto Przyszłości*, 49, 971-975.
3. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch.
4. Рахматов, Ж. А., Алимова, Ш. А., & Бобомуродов, К. Х. (2021). Стратегия инвестиционной политики Республики Узбекистан.
5. Алимова, Ш. А. (2021). ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА КАК НОВЫЙ ЭТАП ГЛОБАЛИЗАЦИИ. АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ И РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ, 234-238.
6. Alimova, S. (2024). NEW APPROACHES TO THE EFFECTIVENESS OF INTERACTION BETWEEN PROFESSIONAL EDUCATION AND EMPLOYERS. *Modern Science and Research*, 3(7), 211-218.
7. Abidovna, A. S. (2024). COMMUNICATION PROCESS MANAGEMENT AS A TOOL TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF MODERN ORGANIZATIONS. *Gospodarka i Innowacje*, 49, 211-217.
8. Bazarova, M. (2024). MARKETING MANAGEMENT STRATEGY'S IMPORTANCE AND MODERN CONCEPT. *Modern Science and Research*, 3(6).



9. Bazarova, M. (2024). FEATURES OF BANKING MANAGEMENT IN THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS. *Modern Science and Research*, 3(6).
10. Хайитов, Ш. Н., & Базарова, М. С. (2020). Роль иностранных инвестиций в развитии экономики Республики Узбекистан. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 284-287).
11. Базарова, М. С., & Пулатов, Ш. Ш. (2019). Проблемы банковской системы узбекистана и пути их решения. *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации*, 131-133.
12. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE FIELD OF HIGHER EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 582-586.
13. Базарова, М. С. (2021). ЭКОНОМИКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЕЁ РАЗВИТИИ. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 350-354).
14. Supiyevna, B. M. (2024). WAYS OF EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN THE DEVELOPMENT OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 131-137.
15. Khudoynazarovich, S. A. (2023). CREATING VALUE IN A TOURIST DESTINATION.
16. Xudoynazarovich, S. A. (2024). KORXONA VA TASHKILOTLARDA PERSONALNI BOSHQARISH TIZIMI VA TAMOYILLARI. *Gospodarka i Innowacje*, 48, 685-690.
17. Shadiyev, A. (2024). TA'LIM MENEJMENTI. TA'LIMNI BOSHQARISH USULLARI VA QARORLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).
18. Khudoynazarovich, S. A. (2021). An Opportunity of Internet Marketing in Tourism Sphere. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 3(3), 356-361.
19. Shadiyev, A. (2022). EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF SINGAPORE TOURISM IN UZBEKISTAN. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 23(23).
20. Xudoynazarovich, S. A. (2024). TA'LIM MENEJMENTI. TA'LIMNI BOSHQARISH USULLARI VA QARORLARI.
21. Shadiyev, A. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM IN ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS. *Modern Science and Research*, 3(8), 10-18.
22. Shadiyev, A. X. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM DEVELOPMENT CHARACTERISTICS. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 108-115.
23. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.
24. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMATLAR SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.
25. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Ijtimoiy Soliq Stavkasini Kamaytirish Orqali Davlat Budjeti Daromatlarini Oshirish Imkoniyatlari. *Gospodarka i Innowacje*, 48, 348-353.
26. Ikromov, E. (2024). SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF SERVICE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, 3(2), 103-109.
27. Ikromov, E. (2024). FEATURES AND ADVANTAGES OF SERVICE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, 3(2), 98-102.
28. Ibodulloyevich, I. E. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA



- ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 258-266.
29. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Tadbirkorlik Faoliyatini Davlat Tomonidan Qo 'Llab-Quvvatlanishi Va Sohaga Mintaqalar Miqyosida Investitsiya Jalb Qilish Samaradorligi. *Miasto Przyszłości*, 53, 515-523.
30. Khalilov, B. B. (2024). INTERNATIONAL ACCOUNTING ANALYSIS. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 740-745.
31. Халилов, Б. Б., & Курбанов, Ф. Г. (2020). Важность подготовки кадров в экономике. *Вопросы науки и образования*, (6 (90)), 12-14.
32. Khalilov, B. B. (2024). ROLE OF INTERNAL AUDITING IN INTERNATIONAL COMPANIES. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 413-419.
33. Bakhodirovich, K. B. (2023). CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF IMPROVING ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *IMRAS*, 6(6), 161-165.
34. Bahodirovich, K. B. (2023). The International Financial Reporting Standards (IFRS) Mean to Businesses and Investors in Uzbekistan. *Miasto Przyszłości*, 42, 746-750.
35. Nafisa, R. (2024). THE PLACE AND ROLE OF TOURISM IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 279-284.
36. Mukhammedrizaevna, T. M., Bakhridinovna, A. N., & Olimovna, R. N. TOURIST LOGISTICS AND SUPPLY CHAIN MANAGEMENT: STRATEGIES FOR REDUCING COST AND IMPROVING SERVICE. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 90.
37. кизи Рахмонкулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).
38. Орипов, М. А., Аминова, Н. Б., & Рахманкулова, Н. О. (2020). Экологически чистое и устойчивое управление цепочками поставок в экономике платформы. *Вестник науки и образования*, (13-2 (91)), 28-30.
39. Bakhridinovna, A. N., & Kizi, R. N. O. (2021). The impact of the digital economy on resource consumption.
40. Nafisa, R. (2024). THE ROLE OF THE MODERN MANAGER IN THE ECONOMY. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 148-154.
41. Raxmonqulova, N. (2023). THE DEVELOPMENT OF CRYPTOCURRENCIES IN THE DIGITAL ECONOMY. *Modern Science and Research*, 2(10), 192-194.
42. Nafisa, R. (2024). Defects in Administration in Economic Development. *International Journal of Formal Education*, 3(9), 17-24.
43. Ruzmetov, B., Jumaeva, Z. K., & Xudayarova, M. (2021). International experience in attracting foreign direct investment. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 3(4), 38-43.
44. ЖУМАЕВА, З. СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ТОЧЕК ПРОИЗВОДСТВЕННОГО РОСТА В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. *ЭКОНОМИКА*, 4, 455-458.
45. Жумаева, З. К. (2023). Потенциал инвестиционной стратегии развития региона. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 333-337.
46. Jumayeva, Z. (2024). THE NEED FOR AN INNOVATIVE APPROACH IN MANAGING ORGANIZATIONS. *Modern Science and Research*, 3(1), 557-562.



47. Ruzmetov, B., Ruzmetov, S., Bakhtiyarov, S., Dzhumaeva, Z., & Juraev, K. (2023). Formation of supporting points for production growth based on diversification of the regional industry. In E3S Web of Conferences (Vol. 449, p. 01001). EDP Sciences.
48. Jumayeva, Z. Q. (2024). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF COMPREHENSIVE DEVELOPMENT PROGRAMS OF THE REGION BASED ON THE ACTIVATION OF INVESTMENT PROCESSES. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 4(7), 137-140.
49. Жумаева, З. К. (2024). Необходимость инновационного подхода в управлении организациями.
50. Hakimovich, T. M. (2024). IQDISODIY NOCHOR KORXONALARNI MOLIYAVIY SOGLOMLASHTIRISHNING MOLIYA-KREDIT MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.
51. Hakimovich, T. M. (2024). ZAMONAVIY BOSHQARUV VA RAQAMLASHTIRISH.
52. Hakimovich, T. M. (2024). MINTAQALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RIVOJLANISHIGA INVESTITSIYA JALB QILISH.
53. Hakimovich, T. M. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT YONDASHUVLARI ASOSIDA XALQ TA'LIMI TIZIMINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.
54. Hakimovich, T. M. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH SOHASI RIVOJLANISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI VA TAMOYILLARI. Gospodarka i Innowacje., 48, 341-347.
55. Toshov, M. (2024). IMPROVING PUBLIC EDUCATION SYSTEM MANAGEMENT BASED ON MODERN MANAGEMENT APPROACHES. Modern Science and Research, 3(6), 716-722.
56. Toshov, M. (2024). WAYS TO DEVELOP AGROTOURISM AND ITS INFRASTRUCTURE IN POST-PANDEMIC CONDITIONS. Modern Science and Research, 3(6), 723-729.
57. Toshov, M. (2024). EFFECTIVE METHODS OF CREATING JOBS AND PROVIDING EMPLOYMENT IN CORPORATE ENTERPRISES. Modern Science and Research, 3(6), 710-715.
58. Toshov, M. (2024). ATTRACTING INVESTMENT TO THE DEVELOPMENT OF BUSINESS ACTIVITIES IN THE REGIONS. Modern Science and Research, 3(6), 696-702.
59. Khakimovich, T. M. (2024). FINANCIAL AND SUPPORT OF SMALL BUSINESSES BY COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Gospodarka i Innowacje., 51, 237-242.
60. Hakimovich, T. M. (2024). Personalni Rag'batlantirish. Miasto Przyszłości, 53, 524-531.
61. Sodiqova, N. (2024). THE MAIN STAGES OF THE INNOVATION PROCESS IN THE ENTERPRISE AND ITS MANAGEMENT. Modern Science and Research, 3(6), 703-709.
62. Sodiqova, N. (2024). MANAGEMENT OF INNOVATIONS IN ENTERPRISE ACTIVITY OPPORTUNITIES TO USE FOREIGN EXPERIENCE. Modern Science and Research, 3(6), 688-695.
63. Sodiqova, N. (2024). THE MAIN METHODS OF SELECTING INNOVATIVE PROJECTS. Modern Science and Research, 3(6), 682-687.
64. Turayevna, S. N. (2024). THE ESSENCE AND CONTENT OF THE CONCEPT OF EMPLOYEE MOTIVATION IN BUSINESS MANAGEMENT. Gospodarka i Innowacje., 48, 554-558.
65. Sodiqova, N. (2024). KORXONALARDA INNOVATSION LOYIHALARNI BAHOLASH TARTIBI VA TANLASH USULLARI. Modern Science and Research, 3(6).



66. Sodiqova, N. (2024). KORXONADA INNOVATSIYANING MOHIYATI VA UNING ASOSIY TUSHUNCHALARI. *Modern Science and Research*, 3(6).
67. Tohir o'g'li, M. T., & To'rayevna, S. N. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION SIYOSAT. ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 45-53.
68. To'rayevna, S. N. (2024). O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION XUSUSIYATLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(08), 113-118.
69. Bustonovna, D. Z. (2024). CREATIVE THINKING AND ITS APPLICATION IN ECONOMICS.[Data set]. Zenodo.
70. Bostonovna, D. Z. (2023). CONCEPTUAL BASIS OF IMPROVEMENT OF BANK AUDIT IN COMMERCIAL BANKS. *IMRAS*, 6(6), 118-124.
71. Bostonovna, D. Z. (2023). USE OF FOREIGN EXPERIENCE IN IMPROVING THE ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF COMMERCIAL BANKS. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*. Finland Academic Research Science Publishers, 11(9), 607-613.
72. Bostonovna, D. Z. (2023). WAYS OF USING REENGINEERING IN ENTERPRISES. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*. Finland Academic Research Science Publishers, 11(7), 430-435.
73. Bostonovna, D. Z. (2023). CONCEPTUAL BASIS OF IMPROVEMENT OF BANK AUDIT IN COMMERCIAL BANKS. *IMRAS*, 6(6), 118-124.
74. Jumayeva, Z. (2024). ROLE OF THE STATE IN REGULATING THE ECONOMY. *Modern Science and Research*, 3(1), 511-516.
75. Akbarovna, N. N. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH SOHASINING TASNIFIY BELGILARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 357-364.
76. Akbarovna, N. N. (2024). OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF CRYPTOCURRENCIES IN THE DIGITAL ECONOMY. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 320-326.
77. Akbarovna, N. N. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO 'RSATKICHLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 326-335.
78. Naimova, N. (2024). STRATEGY OF DIGITALIZATION OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES OF THE STATE TAX COMMITTEE. *Modern Science and Research*, 3(2), 635-641.
79. Akbarovna, N. N. (2024). KORXONADA MEHNAT FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING MOHIYATI VA ASOSLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 133-141.
80. Akbarovna, N. N. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOTDA MOLIYA VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING ORNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 446-449.
81. Naimova, N. (2024). DIGITALIZATION IN OUR COUNTRY'S EDUCATION SYSTEM AND APPLICATION IN THE DIGITAL WORLD. *Modern Science and Research*, 3(1), 912-917.
82. Akbarovna, N. N. (2024). Servis Korxonalarida Xizmat Ko 'Rsatish Sifatini Oshirish Omillari. *Miasto Przyszłości*, 53, 548-557.
83. Akbarovna, N. N. (2024). MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TURIZIMNING O'RNI NAZARIY USLUBIY ASOSLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 63-70.





84. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBAT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQOBATNI BAHOLASH USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 715-720.
85. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion faoliyatning ahamiyati.
86. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini tavsiflovchi omillar. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 620-627.
87. Mahmudovna, G. G. (2024). Competitive strategies, the importance of using innovation in their implementation. *Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali | journal of economy and modern technology*, 3(5), 8-14.
88. Mahmudovna, Q. G. (2024). Raqobat strategiyalari, ularni amalga oshirishda innovatsiyalardan foydalanishning ahamiyati. *Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali | journal of economy and modern technology*, 3(5), 15-21.
89. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY FOR ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 191-195.
90. Azimov, B. F., & Rakhimova, D. D. (2022). The role of research and innovations in the modernization of the regional economy. *Conferencea*, 43-47.
91. АЗИМОВ, Б. Ф., РАХИМОВА, Д. Д., & СОЛИЕВ, Д. Н. (2022). Научные основы инновационного подхода к развитию промышленности и сокращению бедности в узбекистане. *Universum: экономика и юриспруденция*, (5 (92)), 14-17.
92. Б.Ф. АЗИМОВ, А.Ч. БОБОВЕВ, & Ж.Ж. АБДУЛЛАЕВ (2022). ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЭКСПОРТНЫХ ДРАЙВЕРОВ РЕГИОНА ПУТЕМ АНАЛИЗА ВНЕШНЕТОРГОВОГО ОБОРОТА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. *Ученый XXI века*, (7 (88)), 20-24.
93. Азимов Бобир Фаттохевич (2019). Ўзбек миллий урф-одатлари инвестицион ва инновацион трансформациялашга мухтожми?. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (8), 33-39.
94. АЗИМОВ, Б. Ф. (2024). ОСНОВНЫЕ КЛАССИФИКАЦИИ ИННОВАЦИОННОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 250-257.
95. АЗИМОВ, Б. Ф. Экономическая безопасность и ее социально-экономическое значение / Б. Ф. Азимов, Д. Д. Рахимова // *Экономическая безопасность социально-экономических систем: вызовы и возможности : Сборник трудов IV Международной научно-практической конференции*, Белгород, 28 апреля 2022 года / Под редакцией Е.А. Стрябковой, Н.А. Герасимовой, А.М. Кулик. – Белгород: Общество с ограниченной ответственностью Эпицентр, 2022. – С. 351-354. – EDN PSURWB.
96. Азимов, Б. Ф. Формирование и совершенствование стратегии поддержки инновационной деятельности в регионах Республики Узбекистан / Б. Ф. Азимов // *Молодой ученый*. – 2022. – № 12(407). – С. 63-65. – EDN VQOYFQ.
97. Aziz, I. (2023). O'zbekistonda xorijiy investitsiyani jalb qilishni soliqlar vositasida rag'batlantirish yo'llari. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(5), 191-196.
98. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O 'Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 53, 1231-1237.
99. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG 'BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.
100. Yunusovana, U. N., Munira, D., Nigina, M., & Munojot, M. (2021). WAYS OF DEVELOPING DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN. *САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ*, 527.



101. Rakhimova, L. (2024). THE CONCEPT OF 4P MARKETING. ELEMENTS OF THE MODEL. *Modern Science and Research*, 3(1), 812-816.
102. Lolakhon, R. (2024). APPLICATION OF THE 4P CONCEPT IN TOURISM. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 138-145.
103. qizi Bobojonova, M. J. (2023). AGROTURIZMNING IQTISODIYOTDA O 'RNI, SALOHİYATI VA INFRATUZILMASINI YAXSHILASH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 48-52.

